

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**DUSTOVA FIRUZA XAMROYEVNA**

**FRIKSION MUFTALI TIKUV MASHINALARI DINAMIK  
TAVSIFLARINING TEXNOLOGIK JARAYONGA TA’SIRI**

**05.02.03-“Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va  
robototexnika tizimlari”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent–2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) on technical sciences**

<b>Dustova Firuza Xamroyevna</b> Friksion muftali tikuv mashinalari dinamik tavsiflarining texnologik jarayonga ta’siri..	3
<b>Дустова Фируза Хамроевна</b> Влияния динамических характеристик швейных машин с фрикционными муфтами на технологический процесс.....	23
<b>Dustova Firuza Xamroyevna</b> The influence of the dynamic characteristics of sewing machines with friction clutches on the technological process .....	43
<b>E’lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> <b>Список опубликованных работ</b> <b>List of published works</b> .....	46

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**DUSTOVA FIRUZA XAMROYEVNA**

**FRIKSION MUFTALI TIKUV MASHINALARI DINAMIK  
TAVSIFLARINING TEXNOLOGIK JARAYONGA TA’SIRI**

**05.02.03-“Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va  
robototexnika tizimlari”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PHD/T4887 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://www.ttyesi.uz>) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Babadjanov Sabit Xusanovich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Ibragimov Farxod Xayrulloevich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.12.2019.T.08.01–raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «22» yanvar soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: ([pochta@ttyesi.uz](mailto:pochta@ttyesi.uz)), Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 221-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ("219" raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «8» yanvar kuni tarqatildi.  
(2025 yil «8» yanvar 219 - raqamli reestr bayonnomasi).



**X.H.Kamilova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**A.Z.Mamatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

**Sh.Sh.Xakimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Yengil sanoat korxonalarida turli xil tikuv mashinalaridan keng foydalaniladi. Sifatli mahsulot olish maqsadida samaradorligi yuqori mashinalarni yaratish va takomillashtirilgan texnologiyalarni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Tikuv korxonalarida energiyatejamkor texnologiyalarni yaratish bo'yicha, qator davlatlar, jumladan, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Germaniya, Yaponiya olimlari tomonidan salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Gazlamadagi tikilayotgan chokning sifati, ip uzilishlarining soni tikuv jarayonida mashinani ishga tushirish va to'xtatish vaqtidagi friksion muftani ishlashiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, undan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu jihatdan, mavjud mashinalarni takomillashtirish, tikuv mahsulotlari sifatini oshirib, tannarxini kamaytirish imkoniyatini beruvchi takomillashtirilgan, resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda tikuvchilik sanoatidagi ilm-fan va texnikaning zamonaviy yutuqlaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi innovatsion texnika va texnologiyalar hamda ularning ilmiy asoslarini takomillashtirish, shuningdek, yuqori yuklanish qobiliyatiga ega bo'lgan friksion muftalarni ishlab chiqish bo'yicha keng miqyosda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Friksion muftalarning ish samaradorligi aylanish momentining barqarorligini oshirishga asoslanadi, bu esa ularni ishga tushirish aniqligi mezoni bo'yicha baholash imkonini beradi. Ushbu yo'nalishda, jumladan, ishqalanish koeffitsiyenti hamda yuklamaga qarab ishqalanuvchi yuzalarda bosim avtomatik tarzda o'zgaruvchi, yuqori aniqlikda ishga tushiruvchi friksion muftalar bilan aylantiruvchi moment barqarorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda yengil sanoatni rivojlantirish, tikuv mashinalari ishchi qismlarini, uzatmalarini tadqiq qilish, loyihalash va hisoblash bilan bog'liq vazifalar yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida jumladan, "...Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotga sanoat ulushini oshirish" borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarning ijrosini amalga oshirishda, respublikamiz tikuv korxonalarida takomillashgan texnologiya hamda mashinalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi PQ-4186-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati islohotlarini yanada chuqurlashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 16-sentyabrdagi PQ-4453-son "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari

rivojlanishining II. «Energetika, energiya-resurstejamkorlik» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoni oʻrganilganlik darajasi.** Tikuv mashinasi detallarini hisoblash va loyihalash ishlarini amalga oshirish boʻyicha stendlarda, poligon va tajriba sinovlarda olingan natijalarga asoslanib ularning chidamliligi aniqlanib, ishlab chiqarishda dastgohlarga qoʻllash bilan bogʻliq tadqiqotlar I.S.Sitovich, A.V.Lichinadze, V.A.Chunixin, V.M.Aripov, G.M. Sherenkov, V.Ya.Yudenko, T.P.Nyukomb, M.Xermans, G.R.Xarting, N.Kraus va boshqalar tomonidan oʻtkazilgan. Tikuv mashinasi uzatmalari, friksion mufta qismlari chidamliligining tahlili, ularni hisoblash, tadqiq etishda I.B.Barskiy, O.V.Berestnyov, N.N.Beskopilniy, S.G.Borisov, V.A.Galyagin, V.A.Dzyun, V.E.Zaxarov, V.P.Nogayev, A.I.Koryayeva, V.S.Ksendzov, R.V.Kugel, A.D.Levitanus, V.S.Lukinskiy, N.L.Ostroverxov, D.N.Reshetov, A.S.Pronikov, S.V.Serensen, M.A.Skiperskiy, A.T.Skoybed, Yu.V.Skorinin, A.A.Solonskiy, P.A.Stetsko kabi dunyoning yetakchi olimlari oʻz hissalarini qoʻshgan.

Mamlakatimizda tikuv mashinasi igna mexanizmini, ishchi qismlarini takomillashtirish, ishlab chiqish va parametrlarini asoslash boʻyicha tadqiqotlar Z.Sh.Tadjibayev, I.M.Raxmonov, M.A.Mansurova, O.J.Murodov, A.J.Jurayev va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Friksion muftalarga qoʻyiladigan oʻziga xos talablar – bir tomondan gabarit oʻlchamlarni, ajratish kuchlanishi va yoʻlini, sarflanayotgan birlik massaga toʻgʻri kelayotgan solishtirma massani kamaytirish, ikkinchi tomondan koʻp miqdorda energiya sarflanishi, aylanish momenti uzatilishlari konstruktor oldiga muhim vazifalarni qoʻyadi. Friksion boʻlinmaning optimal konstruktiv parametrlarini, jumladan disklar soni va oʻlchamlarini tanlash anchagina qiyin va murakkab masalalardan boʻlib, ularni loyihalashda jihozning ishonchliligi, chidamliligi, ishlash muddati va iqtisodiy samaradorligi har bir aniq holat uchun uning toʻgʻri yechimiga bogʻliqdir va bunga oid tadqiqotlar yetarlicha oʻtkazilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasini ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti «Urgench Cluster» MChJ bilan №03/24 “Tikuv mashinasini yumshoq ishga tushirish va toʻxtatish uchun harakatlantiruvchi mexanizmni loyihalash” boʻyicha tuzilgan xoʻjalik shartnomasida aks ettirilgan hamda Toshkent toʻqimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy kengash yigʻilishining 2020yil 4 fevraldagi 7-sonli bayonida tasdiqlangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** tikuv mashinasining ishga tushish aniqligini va yuklanish qobiliyatini oshirish uchun kuch taʼsirida alohida tutashuvchi friksion muftani takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** tikuv mashinasidagi friksion mufta ishga tushish aniqligining cheklanganlik sabablarini aniqlash;

friksion muftada qayishqoq siquvchi koeffitsiyentli ilashuvchilar qoʻllaniladigan boshqaruvchi qurilmadan foydalanishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;



o'zgaruvchan qiymatli qayishqoqlikka ega bo'lgan diskning konstruktiv varianti sintez qilinib, friksion muftani modelda sinab ko'rish va tajribaviy tadqiqotlar o'tkazish;

o'tkazilgan nazariy va tajribaviy tadqiqotlar asosida friksion muftani loyihalash hamda hisoblashning ilmiy asoslangan muhandislik metodikasini ishlab chiqish;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ishga tushirish rejimlariga qarab asosiy va qo'shimcha friksion guruhlar tutashganda ishqalanuvchi juftliklardagi jarayonlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida kombinatsiyali konstruksiyaga ega bo'lgan ikkinchi avlod tikuv mashinasining friksion muftasi olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy ishda tadqiqotlarning nazariy va empirik usullari, nazariy mexanika, mashina va mexanizmlar nazariyasi, mashina detallarining tajribaviy ma'lumotlari, tan olingan qoidalariga asoslangan masalalarni yechish usullari, shuningdek modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

tikuv mashinasi qayishqoq elementli friksion muftasining prinsipial sxemasi ishlab chiqilib, ishga tushirish aniqligining oshgani hisobiga ta'minlovchi muftaning ishqalanuvchi juftliklarida tutashuv kuchlanishlarining taqsimlanish qonuniyatlari olingan;

beriladigan yuklanishlarning barqarorligini oshirish hisobiga tikuv mashinasi friksion mufta ishqalanuvchi juftliklarida kuch ta'siridagi tutashuv jarayonini analitik asoslangan;

yuklamani uzatishda friksion mufta eng yuqori barqarorlikka ega bo'ladigan yuklanish xarakteristikasini ta'minlay olishi isbotlanib, asosiy valning burama tebranishlari kattalikasi, ishqalanish koeffitsiyenti va friksion mufta ishqalanuvchi juftliklari tutashuv kuchlanishlari taqsimotining o'zaro bog'liqligi aniqlangan;

tikuv mashinasining takomillashtirilgan rezinali amortizator qo'llanilgan friksion muftani konstruktiv va texnologik ko'rsatkichlarining ratsional qiymatlari to'liq faktorli tajriba usuli yordamida matritsalar tuzish hamda tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

friksion muftani hisoblashning muhandislik usuli va loyihasi taklif etilib, yuqori yuklanish barqarorligiga ega bo'lgan muftani yaratish imkonini beruvchi, burilishdagi tebranishlarning kamayishiga erishilgan;

kuch ta'sirida alohida tutashuvchi friksion muftani hisoblash va loyihalash metodikasi ko'rinishidagi tadqiqot natijalari joriy etish uchun qabul qilingan;

uzatilayotgan yuklama barqarorligining oshishini ta'minlaydigan, kuch ta'sirida tutashuvchi ishqalanuvchi juftliklarda tebranishlarni dempfirlash elementlaridan foydalanishga asoslangan tikuv mashinasi friksion mufta konstruksiyasi ilmiy asoslangan va ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tajriba uchun texnik adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlaridan foydalanilgan va ko'plab kompyuter (hisoblash) tajriba sinovlari bilan tasdiqlanib, ishlab chiqilgan dinamik modellar ilmiy asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tikuv mashinasi friksion muftasi ishqalanish juftlari orasidagi o‘zaro ta’sir jarayonining matematik modelini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tikuv mashinasi friksion muftasining modernizatsiya qilingan konstruksiyasi hamda gazlamaning tikilish sifatini yaxshilash uchun disklar orasidagi bo’shliqni sozlash bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dissertatsiyada tikuv mashinasi friksion muftasini takomillashtirish bo’yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar asosida:

tikuv mashinasining yuritmasiga intellektual mulk agentligining foydali modeliga patent olingan (Tikuv mashinasining yuritmasi. UZ № FAP 02019. 2022-y.), natijada tikuv mashinasi friksion muftasining samarali konstruksiyasi yaratilgan;

tikuv mashinasining o‘tuvchi rejimda ishlashini yaxshilovchi va tebranishlarni so‘ndiruvchi qayishqoq elementli friksion muftaning yangi konstruksiyasi yaratilib, “Urgench Cluster” MChJ tasarrufidagi tikuv ishlab chiqarish korxonasi joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 20 may 2024-yildagi №-03/25-1051 ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilishi natijasida igna ipining uzilishlari va tikuv ignasining sinishlari 25% ga kamayishini ta’minlaydi, bu orqali elektroenergiyani sarfini ham kamayishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jami 10 ta ilmiy-texnik konferensiyalarda, shu jumladan 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 19 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo’lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan 8 ta respublika hamda 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan va 1 ta O‘zbekiston Respublikasining foydali modeliga patent olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqot ishining maqsad va vazifalari shakllangan, umumiy metodikasi keltirilgan. Ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati aniqlangan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining sanoat ishlab chiqarishda qo‘llanilganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tikuv mashinalari friksion muftasi konstruksiyalari ishining tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida mahalliy va xorijiy adabiyot manbalarining tahlili yoritilgan bo’lib, tikuv mashinalari konstruksiyasini takomillashtirish va uzatma mexanizmlari samaradorligini oshirish bo’yicha tadqiqotlar ko‘rib chiqilgan. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tikuv



mashinalari ishchi qismlari, uzatma mexanizmlarining yanada takomillashtirilishi tezlik oshishiga, texnologik imkoniyatlar kengaytirilishiga, tikuv mashinalari o'ldamlarini, quvvatini va energiya ko'rsatkichlarini kamaytirishga qaratilgan.

Shu maqsadda universal tikuv mashinalari ishqalanish mexanizmining yangi takomillashtirilgan konstruksiyasi tavsiya etildi.

Dissertatsiyaning **“Tikuv mashinasi uzatmalari mexanizmlarining dinamik tahlili va uni nazariy tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida, friksion muftani quvvat oqimining uzilishlarisiz ishga tushirish hamda to'xtatishdagi ishlashini o'rganish uchun, friksionlarning ilgari lanma harakatini va ularning ishqalanuvchi yuzalari orasidagi bo'shliqni hisobga oladigan qayishuvchi-dissipativ aloqali loyihalash sxemasi ko'rib chiqilgan.

Hisoblash jadvalida (1-rasm) quyidagi belgilashlar qo'llaniladi:  $m_1$  – friksion o'rnatilgan yetakchi diskning massasi;  $m_2$  – tepki yordamida harakatlanuvchi platforma bilan boshqariladigan yetaklanuvchi disklarning og'irligi;  $F_{\alpha}$  – friksionning harakatiga to'sqinlik qiluvchi, rezina qatlamli friksion qoplamasi tomonidan hosil qilinadigan yopishqoqlik qarshilik kuchi;  $\Delta_1, \Delta_2$ -bo'shliqlar;  $x_1, x_2$  – tizimning umumlashtirilgan koordinatalari;  $\Omega_1, \omega_2$  – mos ravishda yetakchi va yetaklanuvchi massalarning aylanish chastotalari,  $\text{min}^{-1}$ ;  $R$  – ishchi tepkini bosganda platforma tomonidan hosil qilinadigan diskdagi bosim;  $J_1$  – elektrodvigatel valiga o'rnatilgan diskning inersiya momenti;  $J_k$  – yetakchi disk bilan friksion korpusning birgalikdagi inersiya momenti;  $J_{pr}$  – yetaklanuvchi diskning oraliq inersiya momenti;  $J_2$  – yetaklanuvchi val shartli maxovigining inersiya momenti, tikuv mashinasi asosiy vali aylanishining ekvivalent momenti;  $\varphi_1$  va  $\varphi_2$  – friksion qoplamalarning ishqalanuvchi yuzalari holatini aniqlovchi koordinatalar;  $M_1$ – friksionga jamlangan aylanuvchi qismlarning ishqalanish momenti;  $M_{sopr}$  – tikuv mashinasi yetaklanuvchi qismlarining ishqalanish momenti;  $m_{\omega m}, z_{\omega m}$  – platforma massasi va yetaklanuvchi diskning harakatlantirish koordinatasi;  $R_s$  – tikuv mashinasi asosiy valining aylanishiga qarshilik kuchi;  $R_{kr}$  – gazlamani teshish kuchi;  $Q_{x_1}, Q_{x_2}$  – gazlama ilgari lanma siljishida harakat koordinatalari bo'ylab umumlashtirilgan kuchlar.

Hisoblash sxemasida massaning buralma tebranishlari uchun differensial tenglamalarni tuzishda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\frac{d}{dt} \left( \frac{\partial T}{\partial \dot{q}_i} \right) - \left( \frac{\partial T}{\partial q_i} \right) = - \frac{\partial \Pi}{\partial q_i} - \frac{\partial \Phi}{\partial q_i} + Q_{q_i} \quad (1)$$


Bunda  $q$  – umumlashtirilgan tezlik;  $P$  – tizimning potensial energiyasi (J);  $T$  – tebranish tizimining kinetik energiyasi (J), ko'rilayotgan hisoblash sxemasi uchun quyidagiga teng:

$$T = \frac{1}{2} J_1 \cdot \dot{q}_1^2 + J_1 \cdot \dot{q}_2^2 + m_1 \cdot \dot{x}_1^2 + m_2 \cdot \dot{x}_2^2 \quad (2)$$

Tizimning potensial energiyasi:

$$\Pi = \frac{1}{2} [c x_1 - x_2]^2 \quad (3)$$

Bunda  $c$  – o'rnatilgan friksion rezina qoplamasining qattqlik koeffitsiyenti



**1- rasm. Ishqalanuvchi yuzalar orasidagi tirqishni va ilgarilanma harakatlarni inobatga olib tikuv mashinasi friksion muftasini ishga tushirishni hisoblash sxemasi**

Bunda  $\ddot{q}_2$  – burchak tezlanish,  $m/s^2$

$J_2$  -inersiya momenti keltirilgan inersiya momenti bo‘lib, tikuv mashinasi konstruksiyasini tashkil etgan harakatlanuvchi elementlarning kinetik energiyasi sharoitidan aniqlanuvchi va asosiy valga keltirilgan holda hisoblanadi.

Shunday qilib, turli yuklanishlarda transmissiya massasi egiluvchan- dissipativ aloqali ta’sirlarni hisobga olgan holda tikuv mashinasi uzatmalaridagi quvvat oqimini uzmasdan, tikuv mashinasi uzatmasi friksionlarning ishqalanishini modellashtirish imkonini beruvchi hisoblash sxemasi (1- rasm) va differensial tenglamalar tizimi (4) ni o‘z ichiga olgan matematik model ishlab chiqildi.

1-rasmda keltirilgan hisoblash sxemasida massa uchun buralma tebranishlarning differensial tenglamalari quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\begin{cases} J_1 \ddot{q}_1 = Q_{q1} \\ J_2 \ddot{q}_2 = Q_{q2} \\ M_1 \ddot{x}_1 = -cx_1 - x_2 - a(\dot{x}_1 - \dot{x}_2) + Q_{x1} \\ M_2 \ddot{x}_2 = cx_1 - x_2 + a(\dot{x}_1 - \dot{x}_2) + Q_{x2} \end{cases} \quad (4)$$


$$\begin{cases} L_1 = \left( M_D - k \frac{t_1}{2} \right) \\ L_2 = M_c \cdot \omega_o \cdot t_2 + \frac{t_2^2}{2} \left[ M_c \cdot \left( \frac{M_c}{J_D} + \frac{M_B}{J_B} \right) - \omega_o \cdot k \right] - \frac{k \cdot t_2^3}{3} \\ \left[ \frac{M_c}{2} \left( \frac{1}{J_D} + \frac{1}{J_B} \right) + \frac{M_c}{J_D} + \frac{M_B}{J_B} \right] + \frac{k^2 \cdot t_2^4}{8} \left( \frac{1}{J_D} + \frac{1}{J_D} \right) \end{cases} \quad (5)$$

Bunda  $k$  – FM yetaklanuvchi diskning burchak tezligi,  $rad/s$ . Tikuv mashinasi transmissiya elementlari massalaridan hosil bo‘ladigan buralma tebranishlarga dvigatel momenti (6) o‘zgarishining ta’sirini tadqiq qilish maqsadida dvigatel momentini ifodalashning garmonik usullaridan foydalanilgan:

$$\begin{cases} Mt = \frac{2M_0}{\pi} \sin \omega t - \frac{1}{2} \sin 2\omega t + \frac{1}{3} \sin 3\omega t - \dots \\ Mt = \frac{2M_0}{\pi} \sin \omega t - \frac{1}{2} \sin 2\omega t + \frac{1}{3} \sin 3\omega t - \dots \\ Mt = \frac{8M_0}{\pi^2} \sin \omega t - \frac{1}{3^2} \sin 2\omega t + \frac{1}{5^2} \sin 3\omega t - \dots \end{cases} \quad (6)$$

Bunda  $M_0$  – dvigatelning nominal momenti;  $\omega$  – aylanish chastota,  $c^{-1}$

Muftani ishga tushirishda friksionlarning ishini modellashtirish natijalari 2 va 3-rasmlarda keltirilgan.




- 1- yetakchi diskning burchak tezligi;
- 2- friksionlar yetaklanuvchi diskning burchak tezligi.

**2– rasm. Friksionlarning ishqalanuvchi yuzalari yetakchi diskida dempferlash bo‘lmaganda friksionlarning aylanishdagi burchak tezligining o‘zgarishi diagrammasi.**

Ishqalanuvchi yuzalarda dempferlash bo‘lmaganda yetakchi va yetaklanuvchi friksionlarning aylanishdagi burchak tezliklarining o‘zgarishi egri chiziqlari 3-rasmda keltirilgan. Birinchi bosqichda (I bo‘lim) yetaklanuvchi valning burchak tezligi nolga teng,  $t_{vkl}$  -friksion uzatma mexanizmini ishga tushirish vaqti, friksion uzatma elementlarini harakatga keltirishga va ishchi tomonidan tepkini bosish kuchiga sarflanadi. Grafikning II bosqichida FM diskларining ilashishi bilan yetaklanuvchi friksionning aylanish tezligi oshadi va yetakchi diskning tezligi ma’lum qiymatgacha kamayadi. Tebranish tezligining amplitudasi 20 rad/sek, 2-rasmda A kattaliqda ko‘rsatilgandek, vaqt  $t=0,17$  sek.ga teng. Bu jarayonga sarflanadigan tezlashuv vaqti 0,4sek. bo‘lib, yetaklanuvchi friksion momentining oshish tezligini ko‘rsatadi. Grafikning III bosqichida friksionlarning keyingi ilashishi sodir bo‘ladi, IV bosqichda ularning burchak tezliklari to‘liq tenglashadi.

3-rasmda FM yetaklanuvchi diskda dempferlash bo‘lganda yetakchi va yetaklanuvchi disklardagi burchak tezliklar o‘zgarishlarining grafik bog‘liqliklari keltirilgan. Birinchi bosqichda (I bo‘lim) yetaklanuvchi valning burchak tezligi nolga teng,  $t_{vkl}$  -friksion uzatma mexanizmini ishga tushirish vaqti, friksion uzatma elementlarini harakatga keltirishga va ishchi tomonidan tepkini bosish uchun sarflanadi. Grafikning II bosqichida FM diskларining ilashishi bilan yetaklanuvchi friksionning aylanish tezligi ohista oshadi va yetakchi diskning tezligi uncha katta bo‘lmagan  $A = 5$  rad/sek qiymatgacha kamayadi. Tebranish tezligining amplitudasi 3-rasmda A kattalik bilan ko‘rsatilgandek 5 rad/sek, bunda vaqt  $t=0,04$  sek.ga teng. Bu jarayonga to‘la tezlashish uchun ketgan vaqt 0,26 sek.ni tashkil qiladi va bu yetaklanuvchi friksionda momentning o‘shish tezligini aniqlaydi.


Grafikning III bosqichida friksionlarning bir-biriga yopishishi davom etadi, IV bosqichda ularning burchak tezliklari bir-biriga tenglashadi.



**3-rasm. Ishqalanuvchi yuzalardagi yetaklanuvchi diskda dempferlash bo‘lganda friksionlarning aylanishdagi burchak tezligining o‘zgarishi diagrammasi**


Ikki variantdagi friksionlardan olingan qiymatlarni taqqoslab, burchak tezliklarining tebranishlar amplitudasi va aylanish momentlari orasida

tezlashuv vaqtining oddiy muftalar uchun farqi  $t=0.4$  sek, dempferli muftada  $t=0,26$  sek. degan xulosaga kelamiz. Shuningdek, momentlarning tebranishlar amplitudasi farqi 4 marta, burchak tezliklari o'rtasida ham  $A=20$  rad/sek va  $A=5$  rad/sek, ya'ni tafovut mavjudligini ko'ramiz. Olingan natijalardan ko'rinadiki, FMLarni ishga tushirish holatiga qarab, tebranishlar amplitudasi va xususiyatlari o'zgarishi mumkin. Tebranishlar amplitudasi xususiyatlariga ishchining malaka darajasi bilan belgilanadigan FMLarni ishga tushirish vaqti  $t_{vkl}$  ta'sir qiladi. Tebranishlar amplitudasining rezina qattiqligi va qalinligiga bog'liqlik grafisini keltiramiz.



**4- rasm. Tikuv mashinasi uzatma validagi aylanishlar moment tebranishlari amplitudasi o'zgarishlarining turli qalinlikdagi rezinalar qattiqligiga bog'liqlik grafifi.**

1-qator  $\delta=6\text{MM}$  qalinlikdagi  
2-qator  $\delta=4\text{MM}$  qalinlikdagi  
3-qator  $\delta=2\text{MM}$  qalinlikdagi rezinali dempfer uchun.




**5- rasm. Oddiy ilashuvchi mufta uchun tikuv mashinasi tezlashish vaqtining asosiy val aylanishlar chastotasiga bog'liqlik grafifi. Elektrodvigatel valining aylanishlar chastotasi 3000 ayl/min.**


Keltirilgan hisoblashlar va qiyosiy grafiklarning tahlili ko'rsatadiki, tikuv mashinasini ishga tushirishdagi momentning tebranish amplitudasiga bog'liq o'zgarishlari qayishqoq elementning qalinligi va tizimning qattiqligi chiziqli xususiyatga ega. Tadqiqot ishining **uchinchi** bobida nazariy taxminlarni sinab ko'rish uchun tikuv mashinasi friksion muftasining ishlashi va dinamik xususiyatlarini o'lchash uchun tajriba qurilmasi hamda asboblari loyihalashtirilgan va ishlab chiqarilgan.

Bu uskuna tikuv mashinalari uzatmalariga xos bo'lgan tikuv mashinasini ishga tushirish va to'xtatish vaqtida mufta orqali beriladigan burovchi moment kabi friksion muftaning ko'rsatkichlarini o'lchash, friksion mufta va tasmali uzatmaning sirpanish koeffitsiyenti kabi kattaliklarni aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilish uchun igna ipining tarangligini, ignaning plastinkaga nisbatan holatini nazorat qilish uchun qo'shimcha datchiklar, tikuv mashinasi asosiy va yetaklanuvchi vallarining aylanish chastotasini nazorat qilish uchun taxometrlar o'rnatildi. Datchiklarning turlari va joylashish holati 7-rasmda keltirilgan.



**6 – rasm. Tikuv mashinasi uzatma validagi uzatma momenti tebranishlari chastotasining qayishqoq element qalinligiga bog’liqlik grafigi**



**7-rasm. Tikuv mashinasi uzatmasi valining burovchi momentini o’lchash uchun tajriba uskunasi strukturaviy sxemasi**

1-tikuv mashinasi sanoat stoli; 2 – YAMATA tikuv mashinasi; 3 – tikuv mashinasi harakatga keltiruvchi momentomerli shkiv uzatmasi;

Tajribaviy tadqiqotlar mobaynida elektrodvigatel aylanish chastotasini o’zgartirish uchun inverter o’rnatilib, uning yordamida tadqiqot o’tkazish rejasining ma’lum bir vaqtda elektromotor rotorining 1000 dan 6000 ayl /min. gacha oraliqdagi kerakli aylanish chastotasi ma’lum qadamlar bilan tanlab olindi.

4 – taxometr va taxogenerator;  
 5 – FMni harakatlantirish mexanizmi;  
 6 – mashinani ishga tushiruvchi tepki;  
 7 – igna ipini nazorat qilish datchigi;  
 8 – siquvchi lapka; 9 – tikish qadamini sozlash mexanizmi; 10 – lapkaning yuklanishlarini sozlovchi datchik;  
 11– ipli g’altak; 12 – kelayotgan ipning yuklanishlarini sozlovchi datchik;  
 13 – elektromotor; 14 – ipni joylashtiruvchi datchik; 15 – FM chiquvchi validagi momentomerli shkiv uzatmasi; 16 – tokosyomnik;  
 17 – UT-4-1 tenzometrik kuchaytirgich;  
 18 – impuls konvertori;  
 19 – LTR-154 raqamli konvertor;  
 20 – EVM-registrator;  
 21 – kuchlanishlar stalibizatori;  
 22 – Xoll datchigi; 23 – taxogenerator.



a)




b)

**8a, b -rasm. Tikuv mashinasi va friksion muftali elektrodvigatelning umumiy ko‘rinishi**



Tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazish uchun quyidagi mashina parametrlari qabul qilindi va nazorat datchiklari o‘rnatildi. Tikuv mashinasi asosiy validagi burovchi momentning  $M_v$  nazorat datchiklari, FM valining burovchi momenti  $M_f$ , tikuv mashinasi asosiy valining aylanish chastotasi  $n$ , ayl/min, elektrodvigatel valining aylanish chastotasi, ayl/min. Materialni tikishdagi igna ipining tarangligi  $R$ , sN, friksion disk yuklanishlari  $Q$ , jarayonning borish vaqtini ossillogrammada 0,001 sek diapazonda yozib 120 kGts chastotada qayd qilish orqali aniqlandi.

Tajribaviy tadqiqotlar davomida friksion muftani sekin, vaqti-vaqti bilan yoki keskin ishga tushirish rejimlarini tanlash uchun elektrodvigatelning ishchi aylanish tezligi va sharoitlari o‘zgartirilib natijalar olindi. Yuqoridagi barcha shartlar uchun tajribalar kamida 10 martadan takrorlab o‘tkazildi. Olingan natijalarni solishtirish va tanlangan parametrlarning jarayonga ta‘sirini o‘rganish hamda ipning uzilishiga, igna sinishlari soniga, tikish sifatiga materialni tikish jarayonidagi tebranishlarning aylanish chastotasi o‘zgarishlariga ta‘sirini aniqlash uchun igna plastinkasiga nisbatan ignaning holat datchiklari o‘rnatildi. Standart namunadagi va taklif qilinayotgan friksion mufta ishining ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlili uchun bir xil ishlash sharoitlarida tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazildi.



a) tezlik 3000 ayl/min.

b) tezlik 5000 ayl/min.

**9-rasm. Standart konstruksiyadagi friksion muftali tikuv mashinasida gazlamani tikishdagi ossillogramma yozuvi**


1 – tikuv mashinasi asosiy valining aylanishlari; 2 – igna plastinkasiga nisbatan ignaning holati; 3 – sanoq boshi; 4 – tikuv mashinasining asosiy validagi burovchi moment; 5 – yetaklanuvchi friksion diskdagi moment; A – tikuv mashinasi yetaklanuvchi vali burovchi momentining o‘zgarish chastotasi; V – tikuv mashinasining asosiy validagi burovchi moment o‘zgarishining amplitudasi; 6 – jarayonning borish vaqti;

9-rasmda keltirilgan ossillogrammadan olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, elektrodvigatelning aylanishlar chastotasi 3000 ayl/min bo‘lganda tikuv mashinasi ishchi tezlikka to‘liq erishguncha, tezlashish vaqti 0,12 sek. ni tashkil etadi. Bunda yetaklovchi valdagi momentning o‘zgarishidagi farq 0,9 N·m ni, yetaklanuvchida esa 0,45 N·m ni tashkil qiladi.

Burovchi momentning mashina mexanizmlari inersiya kuchlarini yengib tiklanish vaqti 0,18 sek.ni tashkil etadi (9,a -rasm). 5000 ayl/min tezlikda tezlashish vaqti 0,62 sek. va momentning tiklanish vaqti 0,1 sek. (9,b -rasm). Rasmlarni o‘zaro taqqoslab, asosiy valdagi aylanish tezligining qiymatidan qat’iy nazar mashinani ishga tushirishdagi burovchi moment tebranishlari takrorlanadi va tebranish xususiyati bilan chastotasi bir xil bo‘ladi. FMdagi tebranishlarning xususiyati muftani ishga tushirish vaqti bilan aniqlanadi va friksion disklarni siqilish kuchi bilan belgilanadi.

Friksion muftani ishga tushirishning dinamik xususiyati dinamik koeffitsiyentga va ishga tushirish vaqtiga bog‘liq. Qiyosiy tahlil uchun taklif etilayotgan tikuv mashinasi friksion muftasining 9-rasmida keltirilgan konstruksiyasi uchun FM asosiy validagi yuklanish o‘zgarishlarining qaydlari olib borildi. Qaydlar dvigatel chastotasi 3000 ayl/min bo‘lgan sharoitda, qayishqoqlik moduli  $E=45\text{ N}\cdot\text{m}_2$  ga, qalinligi  $N=4\text{ mm}$  ga teng tanlangan qayishqoq elementli muftada olib borildi. 9-rasmida: A – jarayonning davomiylilik vaqti; B-vallardagi moment o‘zgarishining amplitudasi.

Olingan natijalar tahlilidan ko‘rinadiki, FM yetaklanuvchi diskida tebranishlar amplitudasi ancha kamayib xususiyatlari o‘zgardi. Asosiy valdagi kamaygan




moment 0,45  $\text{N}\cdot\text{m}$  va yetaklanuvchi valdagi esa 0,15  $\text{N}\cdot\text{m}$ , vaqt  $T=0,04\text{ sek.}$  Yozuv paytidagi tezlik 3000 ayl/min.

**10-rasm. Friksion muftaning taklif etilayotgan konstruksiyasi bilan materialni tikishdagi ossillogramma yozuvi**


Tikuv mashinasi FM sida qayishqoq elementning qo‘llanilishi harakatlantiruvchi vallardagi burama tebranishlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘rsatkichlarni tahlil qilish natijasida, tajribaviy tadqiqotlar asosida taklif etilgan konstruksiyaning ish qobiliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash masalasi paydo bo‘ldi. Bundan asosiy maqsad: asosiy valning aylanish tezligi  $n(\text{ayl}/\text{min})$ , tepkiga beriladigan kuchlanish  $R(\text{N})$ , qayishqoq elementning qalinligi (mm), uning elastiklik moduli  $E(\text{N}/\text{m})$ , tebranishlar amplitudasi  $A$  va tizimning tebranish chastotasi kabi ko‘rsatkichlarning konstruksiya samaradorligiga bog‘liqliklarini aniqlash. Shuningdek turli sharoitlarda materialni tikish sifatiga, ignaning sinish holatlariga friksion muftaning ta’sirini o‘rganish masalalari qo‘yildi. 9 va 10-rasmida tikuv mashinasi yetaklanuvchi validagi moment tebranish amplitudalari o‘zgarishlarining friksion muftani ishga tushirish vaqtiga ikki turdagi FM konstruksiyasi uchun aylanish chastotalarining bog‘liqlik grafiklari keltirilgan. Hisoblashlar aylanish




chastotasi 3000 ayl/min, tepkiga beriladigan yuklama 1 sek. davomida sekin o'sib boruvchi sharoitlarda olib borilgan.



**11- rasm. Tebranish momenti amplitudalari o'zgarishlarining friksion muftani ishga tushirish vaqtiga bog'liqligi**




**12- rasm. Tebranish momenti amplitudalarining yetaklanuvchi valdagi aylanish chastotasiga bog'liqligi**




Tepadan 1-qator 30N·m; 2-qator 40N; 3-qator 50N·m qattqlikdagi rezina uchun.

**13- rasm. Tebranishlar hastotasining dempfer qalinligiga bog'liqligi**




**14- rasm. Tebranish chastotasining dvigatel aylanish tezligiga bog'liqligi**



1-qator – 2 mm; 2-qator – 3 mm; 3-qator – 4 mm qalinlikdagi qayishqoq element;

**15-rasm. Tebranish amplitudasining rezina qattqligiga bog'liqligi**



1-qator–oddiy; 2-qator–qayishqoq elementli mufta uchun;

**16- rasm. Tebranish chastotasining asosiy val aylanishlariga bog'liqligi**

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, yuklanishlar tebranish chastotasining o'zgarishlari qayishqoq elementning qattqligiga va qatlam qalinligiga jiddiy ravishda

bog'liq bo'lib, chiziqli bo'lmagan tabiatga ega. Ta'kidlash joizki, 2 mm qalinlikdagi qayishqoq elementning chastotasi 50 dan 35 Gtsgacha kamayadi va 4 mm qalinlikdagi qayishqoq element qo'llanilganda esa chastota yanada ko'proq 40 dan 20 Gts gacha o'zgaradi ya'ni, bu o'zgarish qoplamaning elastiklik xossalariga bog'liqdir. Muftaning ish qobiliyatiga rezinaning qattiqligi, qalinligi kabi ko'rsatkichlari tikuv mashinasi harakatlantiruvchi vali burovchi momentining tebranish chastotasiga va amplituda o'zgarishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Friksion mufta konstruksiyasidagi o'zgarishlarini hisobga olib konstruktiv parametrlarining optimal qiymatlarini aniqlash qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi.

**To'rtinchi bobda** ishqalanuvchi muftalarning texnologik ko'rsatkichlarga ta'siri bo'yicha tadqiqot materiallari keltirilgan. Bir xil ishlab chiqarish sharoitlarida TOYODA va TUPICAL firmasining 10 ta tikuv mashinalarida 2 qavatli jinsi materialini tikish texnologik jarayonini 100 soat davomida kuzatdik. Bunda (U), qayishqoq elementining qalinligiga bog'liqligini aniqlashda (h), tepkiga bosim (P) va friksion diskka yuklama berilganda igna sinishlarining ro'y berish qonuniyatlarini tekshirish maqsadida tadqiqotlar olib borildi. Tikuv ishlab chiqarish korxonalaridagi mutaxassislardan olingan so'rovnoma natijalariga va adabiyotlar tahliliga ko'ra kiyim qismlarini tikishda bahya uzunligi 2,5–4,5 mm oralig'ida bo'ladi, mashinani ishga tushirishda tepkiga beriladigan bosim kuchi 30-100 N oralig'ida o'zgarishi mumkin. Quyida matritsa tenglamalari va tajribaning kiruvchi omillari keltirilgan (1-jadval).

1- jadval

Kirish omillari	Omillarni kodlash	Darajalar			Variatsiya oralig'i $\Delta_i$
		-1	0	+1	
Qayishqoq elementning qalinligi, mm..	$x_1$	3,0	3,5	4,0	0,5
Friksion disklardagi kuchlanish, N	$x_2$	40	60	80	20

2- jadval

№ Tajriba	Kirish omillari			Javob - chiqish omillari			$\bar{y}_u$	$S_u^2$
	$x_1$	$x_2$	$x_1x_2$	$y_{u1}$	$y_{u2}$	$y_{u3}$		
1	-	-	-	32,2	32,3	32,4	32,30	0,01
2	+	-	-	26,12	26	26,2	26,11	0,0101
3	-	+	-	30,7	30,6	30,5	30,60	0,01
4	+	+	-	24,69	24,72	24,75	24,72	0,0009
5	-	-	+	27,16	27,2	26,9	27,1	0,054
6	+	-	+	21,5	21,3	21,4	21,40	0,01
7	-	+	+	25,5	25,6	25,7	25,60	0,01
8	+	+	+	20,3	20,4	20,1	20,27	0,0233

Tajribani o'tkazish uchun birinchi tartibli ortogonal rejali matritsalar tuzildi  $N = 2^2 = 4$ . Tajriba natijalari 2- jadvalda keltirilgan.

Regressiya tenglamasi olindi:


$$\hat{y} = 20 - 5x_1 - 2x_2 + 0.5x_1x_2 \quad (7)$$

Olingan tenglama (4.21) tikuv mashinasi igna sinishlar sonini ifodalaydi, formula asosan quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:


$$Z = 20 - 5 \frac{h - 3.5}{0.5} - 2 \frac{P - 60}{20} \text{ tenglamani o'zgartirib, quyidagi holatda yozamiz:}$$

$$Z = 61 - 10h - 0,1P \quad (8)$$


Tajriba sinovlari asosida olingan tenglamalar(1) tikuv mashinasi ignalarining sinishlar sonini tavsiflaydi. (1) va (2) tenglamalar asosida  $y = f(x_1, x_2)$  i  $Z = f(h, P)$  grafik bog‘liqliklar chizildi.



**17-rasm. Gazlama qatlamlarining qalinligiga qarab tikuv mashinasi igna sinishlari soni.**




**18-rasm. Oddiy va dempferli friksion muftali tikuv mashinalarda igna sinishlarining mato qalinligiga bog‘liqligi**



**19-rasm. Oddiy va dempferli friksion muftali tikuv mashinalarda igna sinishlarining asosiy val aylanish tezligiga bog‘liqligi**

1-qator jinsi. 2-qator to‘qima. 3-qator paxtali mato; 1- Oddiy mufta; 2- qayishqoq elementli mufta bilan ishga tushirishdagi sinishlar; 3-4 to‘xtatish paytidagi sinishlar; 5-6 boshqa sabablarga ko‘ra igna sinishlari; 7-8 jami sinishlar.



**20-rasm. Tadqiqotlarda tahlil qilingan igna sinishlarining statistikasi**

Bog‘liqlik grafiklari hisoblash natijalarini tahlil qilib, tikuv mashinasini ishga tushirish jarayonida igna sinishlari friksion muftaning tuzilishi, ishlash sharoiti hamda rejimlariga bog‘liq degan xulosaga kelamiz. Ushbu konstruksiyaning ishlashini baholash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili natijasida texnologik

jarayonning turli sharoitlarida va tikuv mashinasining turli ishlash rejimlarida konstruksiyaning materiallarni tikish jarayoniga ta'sirini aniqlash imkonini beradigan parametrlari tanlandi. Tikuv mashinasining parametrlarini nazorat qilish uchun sensorlar o'rnatilgan tikuv mashinasida tajribaviy tadqiqotlar o'tkazildi va tikuv materiallari uchun texnologik shartlar talablariga rioya qilgan holda, tajriba natijalari keyinchalik ossillogrammalarda qayd etildi va kompyuterda qayta ishlandi.

Tadqiqot o'tkazishda quyidagi asosiy parametrlar hisobga olindi, kirish va chiqish parametrlariga bo'lindi: Kirish parametrlari.

1. Friksion mufta diskiga o'rnatilgan va yetaklovchi friksion diskni ushlab turuvchi karkas rezinaning qattiqligini aniqlovchi  $X_1$ – parametrlar, Nm.

2. Tikuv mashinasining asosiy valining aylanish tezligi  $X_2$ , ayl/min.

3. Rezinaning qalinligi  $X_3$  mm.

Tajribalarni o'tkazishda mashinani ishga tushirish paytidagi  $Y_1$  gazlamani tikish chokining mustahkamligi chiqish parametri sifatida qabul qilindi. Unga 25 sm uzunlikdagi va 5 sm kenglikdagi tikuv matosi namunalari tayyorlangan, ular



cho'zish sinov mashinasiga o'rnatildi va chokning mustahkamligi va cho'zilishi aniqlandi.

**21-rasm. Gazlamani chidamliligini aniqlovchi cho'zish sinov mashinasining umumiy ko'rinishi**  
Namunalar uchun JL3406-5 artikulli jinsi,

I19943 artikulli trikotaj va 9600544 artikulli paxta matolari tanlab olindi. 21-rasmda cho'zish sinov mashinasining umumiy ko'rinishi ko'rsatilgan. Aniqlikni oshirish va xatolarni bartaraf etish uchun tajribaviy o'lchovlarni o'tkazishda standart mashinaning parametrlari bilan qiyosiy baholash amalga oshirildi. Tajribalar 10 marta takrorlandi. Tadqiqot o'tkazishda to'liq omilli tajriba (keyingi o'rinlarda TOT deb yuritiladi) 23 tanlandi. Barcha aniqlangan asosiy omillar ikki sathda (+1 va -1) o'zgarib turadi va tajribalar soni  $23 = 8$  ni tashkil qiladi. Asosiy omillarni va ularning o'zgaruvchanlik darajalarini tanlagandan so'ng, qaysi asosiy chiqish parametrlari bo'yicha ishni tahlil qilish va baholash, shuningdek, elastik rezina karkaslar bilan tavsiya etilgan friksion muftaning texnologik va konstruktiv parametrlarini optimallashtirish mumkinligi aniqlandi. Uning asosida 3-jadvalda keltirilgan rejalashtirish matritsasi tuzildi.

Omillarning haqiqiy qiymatlari quyidagi formula yordamida kodlandi:  
 $X_1=(E-100)/50$ ;       $X_2=(n-4000)/2000$ ;       $X_3=(\delta-4)/2$ ;

Bu yerda E – rezina qoplamaning qattiqligi, n – tikuv mashinasi asosiy valining 1 daqiqadagi aylanishlar soni,  $\delta$  – rezinaning qalinligi.


Gazlamani tikishning mustahkamlik parametrlari

Faktor nomi.	Belgilanish kodi	Omilning haqiqiy qiymatlari.			O'zgarishlar diapazoni
		-1	0	+1	
Rezinaning qattiqligi E, $10^4 \text{ H/M}^2$	$X_1$	50	100	150	50
Asosiy valning aylanish tezligi n, ayl/min	$X_2$	2000	4000	6000	2000
Rezina qalinligi $\delta$ , mm	$X_3$	2	4	6	2


Olingan natijalar bo'yicha regression modellar tuzildi.

$$y_R = 26.01 - 2.9 \cdot x_1 - 0.72 \cdot x_2 - 2.42 \cdot x_3 - 0.085 \cdot x_1 \cdot x_2 + 0.96 \cdot x_1 \cdot x_3 + 0.06 \cdot x_2 \cdot x_3 + 0.008 \cdot x_1 \cdot x_2 \cdot x_3$$


$$y_R(x_1; x_2) = 26.01 - 2.89 \cdot x_1 - 0.71 \cdot x_2 - 2.42 \cdot x_3 + 0.08 \cdot x_1 \cdot x_2 + 0.13 \cdot x_1 \cdot x_3$$



22 - rasm. Chokning uzilish kuchini mashina asosiy valining aylanish chastotasiga bog'liqlik grafigi



23 - rasm. Chokning uzilish kuchini rezina qattiqligiga bog'liqligi



24 - rasm. Chokning uzilish kuchini rezina qalinligiga bog'liqligi

## XULOSA

1. Tikuv mashinalari uzatmalarining mavjud konstruksiyalarini tahlil qilish asosida tikuvchilik sanoatida turli xil mashinalarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangi samarali rezinali amortizator qo'llanilgan friksion mufta yaratildi.

2. Mashinani ishga tushirishda friksion mufta orqali uzatiladigan aylantiruvchi momentning tebranishlari masalasi analitik usulda yechildi. Tikuv mashinasi uzatmasida disklar oralig'idagi amortizatsiyalovchi rezina qatlamning deformatsiyasini aniqlash tenglamalari tuzildi. Rezinali amortizator qattiqlik koeffitsiyentining tavsiya etilgan qiymati 50 N/m ekanligi aniqlandi. Friksion disklar orasidagi ishqalanish kuchlarini aniqlash tenglamalari olindi va uning tikuv mashinasini ishga tushirishda tepkiga beriladigan kuchlanish bilan bog'liq o'zgarish qonuniyatlari aniqlandi. Friksion mufta uzatmalarida aylanish momenti talab etilgan qonuniyat bo'yicha sekin o'zgarishi va tebranishlar 0,30Nm dan oshmasligi uchun rezina qattiqligining tavsiya etiladigan qiymatlari  $E = 40\text{N/mm}$ ,  $E = 50\text{N/mm}$  bo'lib, buyum detallarining uzluksiz bir tekis tikilish imkonini beradi.

3. Tikish jarayonida gazlamani teshishdagi ignaning erkin tebranishlari masalasi analitik usulda yechildi. Ignaning erkin tebranishlari masalasini sonli yechish asosida mashinani ishga tushirish paytidagi igna sinishlarining qonuniyatlari topildi. Igna sinishining sabablari aniqlanib, ma'lum vaqt oralig'idagi sinishlar sonining tikuv mashinasi harakatlantiruvchi validagi tebranishlar chastotasiga, tebranish momentiga bog'liqlik qonuniyatlarining grafiklari tuzildi.

4. Taklif etilgan qayishqoq elementning qalinligi o'rtacha tikuv mashinalari uchun 3mm va og'ir tikuv mashinalari uchun 4 mm bo'lib, bunda elektrodvigatelining aylanish chastotasi 5000 ayl/min.gacha bo'lganda aylantiruvchi momentning tebranishlar amplitudasi ruxsat etilgan (0,3Nm) oraliqda bo'ladi. Bu esa igna ipining uzilishlari va tikuv ignasining sinishlari 25% ga kamayishiga olib keladi. Tikuv mashinasini sekin ishga tushirishni saqlab qolgan holda, 0,3 N·m. dan 3,0 N·m gacha aylanish momenti tebranishlar amplitudasi o'zgarishlarining bog'liqlik grafiklari olindi.

5. Tikuv mashinasi uzatmasidagi friksion disklarga dempfer qo'llash orqali tikuv mashinasini ishga tushirish paytidagi tasodifiy igna sinishlari bartaraf etildi. Tikuv mashinasi asosiy valining aylanish tezligiga aylantiruvchi moment tebranishlari chastotasi o'zgarishlarining bog'liqlik qonuniyatlari olindi.

6. Tikuv mashinasi harakatlantiruvchi validagi aylanish momentining tebranishlar amplitudasi bo'yicha nazariy va tajribaviy natijalari orasidagi farq 8 %.dan oshmaydi. Shu bilan birga ip uzilishlarini va bahya tashlab tikishni maksimal darajada kamaytirish uchun friksion disk qayishqoq elementi qattiqlik koeffitsiyentining tavsiya etilgan qiymatlari  $S = (35 \div 50) \cdot 10^3 \text{ n/m}$ .

7. Rezinali amortizator qo'llanilgan friksion muftali tikuv mashinasining takomillashtirilgan konstruksiyasini tikuv ishlab chiqarish sanoatiga joriy etishning iqtisodiy samaradorligi yiliga 22153000 so'mni tashkil etadi.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/30.12.2019. Т.08.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЁГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ДУСТОВА ФИРУЗА ХАМРОЕВНА**

**ВЛИЯНИЕ ДИНАМИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ШВЕЙНЫХ  
МАШИН С ФРИКЦИОННЫМИ МУФТАМИ НА  
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС**

**05.02.03 – Технологические машины. Роботы, мехатроника и  
робототехнические системы**

**АВТОРЕФЕРАТ НА СОИСКАНИЕ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ (PhD)**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.3.PhD/Т4887**

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском) размещена на веб-сайте Научного совета по адресу (<http://www.ttyesi.uz>) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Бабаджанов Сабит Хусанович**  
кандидат технических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Жуманиязов Кадам Жуманиязович**  
доктор технических наук, профессор

**Ибрагимов Фарход Хайруллоевич**  
доктор технических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится «22» января 2025 г. в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности. (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5, Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2 этаж, аудитория 221. тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: 253-36-17; e-mail: ([pochta@ttyesi.uz](mailto:pochta@ttyesi.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована № 219). Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан «8» января 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № 219 от «8» января 2025 года)



**Х.Х.Камилова**

Председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д. т. н., профессор

**А.З.Маматов**

Ученая секция Ученого совета по присуждению  
ученых степеней, д. т. н., профессор

**Ш.Ш.Хакимов**

Председатель Научного семинара при научном совете  
по присуждению ученых степеней, д. т. н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** На предприятиях легкой промышленности очень широко применяются швейные машины. Для получения высококачественной продукции можно упомянуть создание высокопроизводительных машин и использование усовершенствованных технологий. Значительные научные исследования проводятся учеными ряда стран, в том числе Китая, Турции, России, Германии, Японии по созданию энергосберегающих технологий на швейных предприятиях. Качество сшитого шва, количество обрывов нити в процессе шитья во многом зависит от работы фрикциона при пуске и остановке машины, и его использованию уделяется особое внимание. В связи с этим важно совершенствовать существующие машины, разрабатывать усовершенствованные ресурсосберегающие приемы и технологии, повышающие качество швейных изделий и снижающие их себестоимость.

В мире ведутся масштабные научно-исследовательские работы по инновационным методам и технологиям, обеспечивающим эффективное использование современных достижений науки и техники в швейной промышленности, а также по совершенствованию их научной базы, а также как и о разработке фрикционов с повышенной нагрузочной способностью. Эффективность фрикционов основана на повышении стабильности момента вращения, что позволяет оценивать их по критерию точности срабатывания. В этом направлении особое внимание уделяется повышению стабильности крутящего момента с помощью фрикционов, автоматически изменяющих коэффициент трения и давление на трущиеся поверхности в зависимости от нагрузки.

В нашей республике принимаются комплексные меры в связи с задачами, связанными с развитием легкой промышленности, исследованием, проектированием и расчетом рабочих органов и трансмиссий швейных машин, и достигаются определенные результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, среди прочего, важные задачи определены в плане «...обеспечения стабильности национальной экономики и увеличения доли промышленности в валовом внутреннем продукте». В реализации этих задач важно внедрение усовершенствованной технологии и машин на швейных предприятиях нашей Республики.

